"FARG'ONA VODIYSI HUDUDIDA ZYGOPHYLLUM FABAGO O'SIMLIGINING TARQALISH XARITASI"

Namangan davlat unvirsiteti
Biologiya ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi
Teshaboyev Tolib Nizomiddin o'g'li

Kirish; Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi florasini kompleks o‘rganish, o‘simlik resurslarini aniqlash va ulardan oqilona foydalanish, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan botanik hududlarni belgilash hamda o‘simlik dunyosining kamyob va endemik turlarini saqlab qolishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, Respublika florasining milliy axborot-tahliliy ma'lumotlar bazasini yaratish va yuritish, yovvoyi o‘simliklarning kamyob hamda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlari bo‘yicha davlat kadastrini shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi va o‘simlik dunyosi monitoringini yuritish ham muhim vazifalar hisoblanadi. Bundan tashqari, istiqbolli va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simlik turlarini introduksiya qilish va iqlimlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, kamyob o‘simliklarning genetik ma'lumotlar bankini yaratish, cho‘llanish jarayonida o‘simlik qoplami evolyutsiyasi hamda iqlim dinamikasini o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi kunda o‘zbek botanik olimlari oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

O‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, davlat kadastrini yuritish, biologik xilma-xillikni saqlash va undan oqilona foydalanishga katta e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga, jumladan, mahalliy floralarning tur tarkibini aniqlash, ularni tabiiy o‘sish sharoitida saqlab qolish va muhofaza qilish, o‘simlik xomashyosi zaxiralarini aniqlash hamda yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan o‘simlik turlarining *ex-situ* sharoitidagi kolleksiyalarini barpo qilish, kamyob va endem turlar tarkibini aniqlash va

ularning tarqalish xaritalarini tuzish singari muhim natijalarga erishildi. Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining florasidagi yuksak o‘simliklarning ro‘yxati shakllantirilmoqda. (www.floruz.uz) [1].

Tadqiqot obyekti va metodlari. Mazkur ishlar bevosita olib borilgan dala tadqiqotlari hamda tur namunalari saqlanayotgan yirik fondlar — TASH, MW, LE, AA, TAJ, FR hamda Samarqand davlat universiteti gerbariy fondida saqlanayotgan namunalar tahlili va o‘tkazilgan dala tadqiqotlari asosida amalga oshirildi.

Turlarning nomlari *“Opredelitel rasteniy Sredney Azii”* (2015) [2], *International Plants Names Index* (www.ipni.org) [3] va *The Plant List* (www.theplantname.com) [4] asosida keltirildi. Taksonlar mualliflari *“Authors of Plant Names”* R.K. Brummitt, C.E. Powell (1992) [5] qo‘llanmasi asosida berildi. Turlarning koordinata nuqtalarini aniqlashda Google Earth dasturi, tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalarini tuzishda esa ArcMap 10 dasturidan foydalanildi.

Mazkur tadqiqotlar uchun obyekt bo‘lgan turlarning tabiiy zaxiralarini xatlovdan o‘tkazish, senopopulyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash hamda kelgusida barqarorligini ta’minlash maqsadida genofondini saqlab qolish uchun tavsiyalar ishlab chiqish, turlarning tarqalishi va vitalitet holatini aks ettiruvchi xaritalarini tuzish, muhofazaga muhtoj turlarning tabiiy populyatsiyalarini asrab qolish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida “Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining florasi” mavzusida tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Farg‘ona vodiysida olib borilgan dala tadqiqotlari, yirik fondlarda saqlanayotgan namunalarni o‘rganish va mavjud adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish natijasida Zygophyllum fabago turkumining Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarida uchrashi ma’lum bo‘ldi.

Biroq o‘zgarishdan holi emas, chunki dala tadqiqotlari davom ettirilmoqda.Butun dunyoda so‘nggi 10 yil davomida turkum turlari ustida olib borilgan izlanishlar orasida fan uchun yangi turlarni aniqlash, turlarning kimyoviy tarkibi, morfologiyasi va ontogenezini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar nisbatan ko‘proq ekanligini ko‘rish mumkin. Biroq turlarning geografiyasi, tabiiy zaxiralari hamda senopopulyatsiyalarining zamonaviy holatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar nisbatan kamroq hisoblanadi.

Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlari florasidagi Zygophyllum fabago turkumi turlarining qisqacha konspekti, rasmi va tarqalish xaritasi 1 va 2-rasmlarda keltirilgan.

Zygophyllum fabago L; Sp. Pl. da nashr etilgan: 385 (1753)

= Fabago alata Moench in Suppl. Meth.: 90 (1802)

Fabago major Brit. Fl. Garddagi shirinlik . 6: t. 226 (1834)

Zygophyllum fabagineum St.-Lag. Ann shahrida . Soc. Bot. Lion 7: 137 (1880), orth. var.


Zygophyllum fabago subsp. dolichocarpum Popov sobiq Hadidi Fl . Iranika 98: 27 (1972)

Umumiy tarqalish hududi.Afg'oniston, Bolgariya, Xitoyning shimoli-markaziy qismi, Misr, Ichki Mo'g'uliston, Eron, Iroq, Qozog'iston, Qrim, Livan-Suriya, Shimoliy Kavkaz, Pokiston, Falastin, Qingxay, Ruminiya, Sinay, Rossiyaning janubiy Yevropa qismi, Kavkaz, Turkmaniston, Turkiya, Ukraina, Shinjon

Farg'ona viloyati. O'zbekiston va Tojigiston trasnchegaraviy hududlar.



1-**Rasim;** Zygophyllum fabago



2-**2-Rasim;** Farg‘ona vodiysi florasida Zygophyllum fabago

Zygophyllum fabago turining Farg‘ona vodiysi florasida tarqalishini o‘rganish natijasida ushbu turning vodiyning turli hududlarida keng tarqalganligi aniqlandi. Xarita tahlili shuni ko‘rsatadiki, turning tarqalish nuqtalari asosan vodiyning markaziy, shimoliy hamda sharqiy qismlarida joylashgan bo‘lib, ular adir va tog‘ oldi hududlarini qamrab oladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tur Qo‘qon, Namangan, Andijon va Farg‘ona atrofidagi hududlarda ham keng uchrashi qayd etildi. Aniqlangan tarqalish hududlari Zygophyllum fabago turining ekologik jihatdan keng moslashuvchanligini

hamda quruq va yarim qurg‘oqchil sharoitlarga yuqori chidamliligini ko‘rsatadi. Mazkur topilmalar turning arealini aniqlashtirish va Farg‘ona vodiysi florasidagi fitogeografik o‘rnini belgilashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda biologik xilma-xillikni saqlash, ayrim dorivor turlarning tabiiy zaxiralarini aniqlash va ulardan barqaror foydalanishni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, ularning tarqalishini aks ettiruvchi xaritalarni yaratish kabi ishlarni amalga oshirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Turlarning Farg‘ona vodiysi florasida tarqalganligini aniqlash kelgusida olib borilishi rejalashtirilgan tadqiqotlar hamda O‘zbekiston florasining yangi nashrini tayyorlash uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. floruz.uz [Электронный ресурс]. – www.floruz.uz

2. Ф.О. Хасанов “Определитель растений Средней Азии” (2015)

3. International Plant Names Index [Электронный ресурс]. – URL: www.ipni.org

4. The Plant List [Электронный ресурс]. – URL: www.theplantlist.org

5. R.K. Brummit, C.E. Powell “Authors of Plant Names” (1992)